



**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA XUSUSIY (INDIVIDUAL)
KOMPONENTLARINI SHAKLLANTIRISH**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.072>

Turobova Xadicha Xasan qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlag‘ich ta’lim) mutaxsissiligi 2- bosqich magistranti

[*riesonova@gmail.com*](mailto:riesonova@gmail.com)

[*tel: +998902956732*](tel:+998902956732)

Annotatsiya. Mazkur maqolada “xususiy komponentlar” tushunchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchisining o‘quv jarayonlaridagi individual namoyon bo‘ladigan, rivojlantirish imkoni bor bo‘lgan va diagnostika qilinadigan sifatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Xususiy komponentlarning 5 blokdan iborat konseptual modeli (motivatsion, kognitiv, faoliyat-amaliy, refleksiv, ijtimoiy-kommunikativ) ko‘rib chiqildi va ularni shakllantirishning bosqichlari (diagnostika-rivojlantirish-monitoring-yakuniy baholash) va har bir komponent bo‘yicha indikatorlar hamda uch pog‘onali rubrika mezonlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, individual yondashuv, xususiy komponentlar, o‘quv motivatsiyasi, o‘zini boshqarish, refleksiya, formatif baholash, rubrika, metodik model.

Аннотация. В данной статье рассматривается концепция «специфических компонентов» как совокупность индивидуально проявляющихся, развиваемых и диагностируемых качеств в образовательном процессе ученика начальной школы. Рассматривается концептуальная модель специфических компонентов, состоящая из 5 блоков (мотивационный, познавательный, деятельностно-практический, рефлексивный, социально-коммуникативный), и предлагаются этапы их формирования (диагностика-развитие-мониторинг-итоговая оценка), показатели для каждого компонента и трехуровневые критерии рубрики.

Ключевые слова: начальное образование, индивидуальный подход, специфические компоненты, мотивация к обучению, самоорганизация, рефлексивный, формирующее оценивание, рубрика, методологическая модель.

Abstract. This article interprets the concept of “specific components” as a set of individually manifested, developable and diagnosable qualities in the educational processes of a primary school student. A conceptual model of specific components consisting of 5

blocks (motivational, cognitive, activity-practical, reflexive, socio-communicative) is considered, and the stages of their formation (diagnostics-development-monitoring-final assessment) and indicators for each component and three-level rubric criteria are proposed.

Keywords: primary education, individual approach, specific components, learning motivation, self-management, reflexive, formative assessment, rubric. methodological model.

KIRISH So‘nggi yillarda ta‘lim tizimida “sifat” masalasi faqatgina bilim hajmi bilan emas, balki o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabati, mustaqil o‘rganishi, o‘zini boshqarishi, muloqotga kirishishi hamda fikrini ifodalashi kabi shaxsga xos kompetensiyalar orqali baholanmoqda. Boshlang‘ich sinf esa bu sifatlar “birinchi marta tizimli” tarzda shakllanadigan bosqich sifatida ko‘rilib, unda o‘qituvchining metodik yondashuvi o‘quvchining individual rivojlanishini tezlashtirishi ham, aksincha, sustlashtirishi ham mumkin ekanligi yaqqol aksini topgan.

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi o‘quvchining shaxsiy rivojlanish traektoriyasini belgilovchi tayanch davr hisoblanadi. Aynan shu davrda o‘quv faoliyatiga ijobiy munosabat, bilishga qiziqish, o‘zini boshqarish, refleksiya, muloqot va hamkorlik kabi xususiy (individual) komponentlar shakllanib boradi. Keyingi ta‘lim bosqichidagi muvaffaqiyatlarning psixologik-pedagogik poydevorini yaratadi. Amaliyotda uchraydigan muammo shundaki, bir sinfda bir xil dastur o‘qitilsa-da, kichik yoshdagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish sur‘ati, darsga faolligi, o‘zini tutishi, xatodan qo‘rqishi yoki ijodiy yondashuvi keskin farqlanadi. Bu farq “bilim darajasi” bilangina izohlanmaydi; u ko‘proq o‘quvchining **xususiy (individual) komponentlari** bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababdan boshlang‘ich ta‘limda individual yondashuvni amalda joriy etish, avvalo, ana shu komponentlarni aniq belgilash, o‘lchash va maqsadli shakllantirishni talab qiladi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, u boshlang‘ich sinf o‘quvchisining individual rivojlanishini “tarbiyaviy shior” darajasida emas, balki **komponent–indikator–mezon** zanjiri orqali metodik jihatdan boshqarish imkoniyatini beradi.

Maqolaning maqsadi va vazifalari

Maqsad: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xususiy (individual) komponentlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi konseptual-metodik modelini ishlab chiqish, indikatorlar va baholash rubrikalari asosida amaliy tavsiyalar paketini taklif etishdan iborat.

Vazifalar:

1. “xususiy (individual) komponentlar” tushunchasini pedagogik-psixologik nuqtai nazardan aniqlashtirish;
2. komponentlar tasnifini (blokklar va mazmuni) asoslab berish;
3. komponentlarni shakllantirish, bosqichma-bosqich metodik mexanizmini ishlab chiqish;
4. har bir komponent bo‘yicha indikatorlar, 3 pog‘onali baholash mezonlarini taklif etish;

5. boshlang‘ich sinf amaliyoti uchun topshiriqlar hamda o‘qituvchi faoliyatiga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatidagi shaxsiy rivojlanish jarayonida xususiy (individual) komponentlarni shakllantirishning mazmuni, metodlari, vositalari va baholash mezonlariga amal qilish. Maqola konseptual-metodik yo‘nalishda bo‘lib, quyidagi metodlar asosida asoslandi:

- **nazariy tahlil va sintez** (psixologik-pedagogik yondashuvlar, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim konsepsiyalari);
- **pedagogik modellashtirish** (komponentlar modeli va bosqichlar);
- **pedagogik diagnostika** (kuzatish, mini-so‘rov, rubrika, portfolioga tayangan formatif baholash);
- **taqqoslash va umumlashtirish** (komponentlar indikatorlarini tanlash va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish).

ADABIYOTLAR TAHLILI METODOLOGIYA Boshlang‘ich yosh davri (taxminan 7–10 yosh)da o‘quv faoliyati asosiy faoliyat sifatida shakllanadi. Bu davrda o‘quvchilar “o‘qish uchun o‘qish” emas, balki o‘qishning ma‘nosini his etish uchun, muvaffaqiyatni boshdan kechirish, xato bilan ishlash kabi o‘z imkoniyatini baholashni o‘rganadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim yondashuvlari nafaqat o‘quvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari, hattoki, rivojlanish sur‘atini hisobga olishni ham talab qiladi. Motivatsiya nazariyalarida ichki motiv (qiziqish, ma‘no) va tashqi rag‘bat (baholash, maqtov) muvozanati alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zini boshqarish g‘oyalari esa o‘quvchini rejalashtirish, nazorat va refleksiya ko‘nikmalarining rivojlantirilishi zarurligini ko‘rsatadi.[11].

Til-tafakkur birligi va pedagogik “skafold” Vygotskiy tafakkur va nutq munosabatini rivojlanish jarayoni sifatida ko‘rib, “so‘z ma‘nosi”ni tafakkur va nutq birligining markaziy birligi deb talqin qiladi; bu birlik rivojlanishi ta‘lim orqali jadallashadi.[1].

Amaliy nuqtai nazardan olib qarasak, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun eng muhim masala bu “qanday qilib individual farqlarni tizimli ravishda rivojlantirish mumkin?” degan savolga javob berish komponentlarni aniqlashdir. Aniq ta‘riflash, o‘lchanadigan indikatorlarga ajratish va darsda shakllantiradigan metodik mexanizmlar bilan bog‘lash zarur. Shu sababli maqolada individual komponentlar “umumiy tarbiya” tushunchasiga emas, balki dars jarayonida kuzatiladigan muhim hisoblangan, rivojlantiriladigan sifatlar majmui sifatida yondashildi. Faoliyat nazariyasi va ong-faoliyat birligi sifatida faoliyatlarda “motiv-maqсад-harakat-amal” zanjiri orqali osongina tushuntiriladi: o‘quvchi nima uchun o‘qiyapti (motiv) va nimaga erishadi (maqсад) aniq bo‘lsa, individual komponentlar tezroq shakllanadi deb ta‘kidlaydi Leontev. Rubinshteyn esa psixikaning faoliyatda namoyon bo‘lishini ta‘kidlab, o‘rganishni passiv qabul emas, faol qayta ishlash sifatida ko‘radi. Darsdagi motivatsiya “tashqi rag‘bat” bilangina emas, mazmunli faoliyat va natijani his qilish orqali mustahkamlanadi.[2,3].

Sinfdagi (o‘qituvchi modeli, tengdosh modeli, “eng yaxshi ish” namunalari) individual komponentlar (intizom, nutq, muammo yechish uslubi)ni shakllantiradi.[4].

Kichik yoshdagi o‘quvchilarga “sen aqllisan” kabi shaxsga yopishtirilgan bahodan ko‘ra, “strategiya tanlading”, “mehnat qilding”, “xatodan xulosa chiqarding” kabi jarayon bahosi individual o‘shish komponentini yanayam kuchaytiradi.

O‘zini boshqarib o‘rganish dars jarayonida o‘quvchi maqsad qo‘yadi, strategiya tanlaydi, jarayonni kuzatadi, natijalarni esa tahlil qiladi bu esa, individual komponentlarning “yadro mexanizmi”hisoblanadi.[5].

Xususiyl (individual) komponentlar: bu o‘quvchining o‘qish jarayonida individual tarzda namoyon bo‘ladigan, maqsadli pedagogik ta’sirlar orqali rivojlantiriladigan va diagnostika qilinadigan shaxsiyl sifatlar majmuidir. Kichik yoshdagi bolalarning individual komponentlari “o‘quvchining farqini tan olgan” ta’lim dizayni bilan real shakllanadi.[6,7]

Maqolada boshlang‘ich sinf uchun amaliyl jihatdan qulay bo‘lgan 5 blokli tasnif taklif etiladi:

1. **Motivatsion komponent** o‘qishga qiziqish, o‘rganishdan zavq, maqsad qo‘yish, muvaffaqiyatga intilish.

2. **Kognitiv komponent** tushuncha hosil qilish, diqqatni boshqarish, mantiqiy bog‘lanishlarni ko‘ra olish, savol berish madaniylati.

3. **Faoliylat-amaliyl komponent** topshiriqlni bajarish strategiyalari, amaliyl ko‘nikma, mustaqillik, ishni yakunlash odati.

4. **Refleksiv komponent** xatoni tahlil qilish, “nima o‘rgandim?”, “qayerda qiynalldim?”, “qanday tuzataman?” kabi o‘z-o‘zini baholash.

5. **Ijtimoiyl-kommunikativ komponent** hamkorlik, muloqot, tinglash, fikrni madaniylatli ifodalash, jamoada ishlash.

“O‘zini boshqarish” mazmunan refleksiv hamda faoliylat-amaliyl komponentlar kesishmasida joylashadi; boshlang‘ich ta’limda u alohida fan sifatida emas, aynan shu bloklar orqali shakllantiriladi. Hattie esa “ko‘rinadigan o‘qitish va ko‘rinadigan o‘rganish” g‘oyasini kuchli dalillar bilan birlashtiradi: aniq maqsad, aniq mezon, sifatli feedback o‘quv yutuqlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. [8,9,10].

NATIJALAR

Taklif bloklar amaliylotga joriyl etilganda quyidagi o‘zgarishlar kuzatilishi kutiladi:

1. **Motivatsiya barqarorlashadi:** o‘quvchi “faqat baho” uchun emas, topshiriqlning ma’nosini tushunish uchun ham harakat qila boshlaydi.

2. **Kognitiv faollik oshadi:** savol berish, izohlash, sabab-oqibatni anglash elementlari kuchayib boradi.

3. **Mustaqillik rivojlanadi:** ishni rejalash, yakunlash, tekshirish odatlari shakllanadi.

4. **Refleksiya madaniylati paydo bo‘ladi:** xato doimo “jazolanadigan holat” emas, o‘rganish resursi sifatida oddiyl qabul qilinadi.

5. Sinf iqlimi yaxshilanadi: hamkorlik va muloqot qoidalari yuqori darajada mustahkamlanadi.

MUHOKAMA

Muhokama jihatidan eng muhim nuqta deb komponentlar alohida “mashg‘ulot” sifatida emas, balki, har bir darsning ichki mexanizmi sifatida shakllantirilib borilsa, natija barqaror bo‘ladi. Masalan, refleksiyaning haftada faqat bir marta “so‘rov” bilan cheklash kam samarali; uni har dars oxiridagi 2–3 daqiqalik doimiy mini-amalga aylantirish yuqori samaradorlik beradi. Xuddi shuningdek, kommunikativ komponent ham nafaqat “guruh ishi” bilan, balki, tinglash, navbat, muloyim fikr bildirish kabi mikro-ko‘nikmalarini doimiy mashq qildirish bilan rivojlanadi.

XULOSA Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinfda xususiy (individual) komponentlarni shakllantirish o‘quvchining bilimi, o‘qishga tayyorligi hamda o‘qishni boshqarish qobiliyatini rivojlantirish demakdir. Taklif etilgan 5 blokli komponentlarni dars jarayoniga integratsiya qilish, ularni o‘lchab borish va maqsadli rivojlantirishni osonlashtiradi. Xususiy kompetensiya (fan mazmuniga xos bilim, ko‘nikma va malakalarning amaliy vaziyatlarda qo‘llanishi) boshlang‘ich sinf o‘quv jarayonida tizimli, bosqichma-bosqich hamda faoliyatga yo‘naltirilgan metodlar asosida shakllanadi. Bu jarayon faqat nazariy bilimni egallash bilan cheklanmay, o‘quvchilar vazifadagi real muammolarni hal qilish, kuzatish-tahlil-xulosa chiqarish, sabab-oqibatni asoslash, dalillash va o‘z fikrini aniq ifodalash kabi amaliy-intellektual harakatlari orqali mustahkamlanadi. Bu esa, albatta, umumiy (tayanch) kompetensiyalar rivoji uchun ham mustahkam poydevor bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq.
2. Leontev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs.
3. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari.
4. Zimmerman B. Self-regulated learning (o‘zini boshqarib o‘rganish).
5. Shulman L. Pedagogical Content Knowledge.
6. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives.
7. Bruner J. The Process of Education.
8. Piaget J. The Psychology of the Child.
9. Black P., Wiliam D. Formative Assessment (formatif baholash yondashuvi).
10. Hattie J. Visible Learning.
11. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq (tarbiya va shaxs kamoloti kontekstida).